

**Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish (faktoring) evaziga moliyalashni amalga  
oshirish to'g'risida  
\_\_\_\_\_ - sonli SHARTNOMA**

**Shartnoma tuzilgan joy:**

**Shartnoma tuzilgan sana:**

*Moliyaviy agentning nomi*

keyinchalik «**Moliya agenti**» deb nomlanadi,

*asos-hujjatning nomi va rekvizitlari*

ga asosan faoliyat yurituvchi,

*imzo chekuvchining lavozimi nomi, F.I.O*

shaxsida,

*Mijozning nomi*

keyinchalik «**Mijoz**» deb nomlanadi,

*asos-hujjatning nomi va rekvizitlari*

ga asosan faoliyat yurituvchi,

*imzo chekuvchining lavozimi nomi, F.I.O*

shaxsida,

va

*Mijozning nomi*

keyinchalik «**Debitor**» deb nomlanadi,

*asos-hujjatning nomi va rekvizitlari*

ga asosan faoliyat yurituvchi,

*imzo chekuvchining lavozimi nomi, F.I.O*

shaxsida,

keyinchalik birgalikda "Tomonlar", alohida "Tomon" deb nomlanib, ushbu **Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish (faktoring) evaziga moliyalashni amalga oshirish to'g'risidagi Shartnomani (keyingi o'rnlarda "Shartnoma" deb ataladi) quyidagilar to`g`risida tuzdilar.**

## 1. Atamalar va ta'riflar

**Moliya agentining ish haqi (Diskont)** – Tariflarda nazarda tutilgan tartibda, miqdorda va shartlarda belgilanadigan Mijoz tomonidan Moliya agentiga to'laniishi lozim bo`lgan pul summasi:

– Moliyalashdan foydalanganlik uchun komissiya (Diskont) – Reyestrga muvofiq har bir Kontrakt bo'yicha kechiktirishning butun davri uchun moliyalash sanasidan boshlab hisoblanadi. Debitor tomonidan Pul talabnomasi muddatidan oldin so`ndirilgan taqdirda, Moliyalashdan foydalanganlik uchun Komissiya miqdori qayta ko'rib chiqilmaydi.

**So`ndirish sanasi** – Debitor tomonidan Moliya agenti foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasi summasini o'tkazish bo`yicha majburiyat bajarilgan sana.

**Debitor** - Mijoz bilan Kontrakt tuzgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor bo`lib, bunday Kontraktga ko`ra Mijozning Kontraktida belgilangan to`lovni kechiktirish sharti bilan Debitor foydasiga

tovarlarni (xizmatlarni ko'rsatish, ishlarni bajarish) taqdim etishidan kelib chiqadigan Mijozning Pul talabnomasini to'lashga majburdir.

**Pul talabnomasi (qarz summasi)** - Kontrakt shartlari bo'yicha yetkazib berilgan tovarlarni (ko'rsatilgan xizmatlarni, bajarilgan ishlarni) to'lash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi valyutasida ifodalangan, Birlamchi hujjatlarda tasdiqlangan Debitorning Mijoz oldidagi majburiyatlar. Pul talabnomasining summasi Reyestrda ko'rsatiladi.

**Ariza – Moliyalashni taqdim etish uchun ariza** - Moliyalashni olish maqsadida Moliya agentiga yuborish uchun Mijoz tomonidan Axborot tizimida shakllantiriladigan Elektron hujjat (ushbu Shartnomaga 3- ilova shakli bo'yicha).

**Axborot tizimi** - «OZ PLANET» raqamli platforma – "Internet" axborot-telekommunikatsiya tarmog'ining [www.go.ozplanet.uz](http://www.go.ozplanet.uz) saytida joylashtirilgan moliyalash bozori ishtirokchilarining Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish, yuridik ahamiyatga ega elektron hujjat aylanishini tashkil etish bo'yicha elektron o'zaro hamkorligi uchun mo'ljallangan "Raqamli faktoring" EHM uchun dastur:

**Mijoz (yetkazib beruvchi)** – Debitorga, u bilan tuzilgan Kontrakt doirasida to'lovni kechiktirish shartlari asosida, Debitorga Kontrakt asosida tovarlarni (xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish) taqdim etishdan kelib chiqadigan talab qilish huquqiga ega bo'lgan tovarlarni (xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish) yetkazib beruvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

**Kontrakt** - Tovarlarni yetkazib berish shartnomasi (xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish) – Mijoz va Debitor o'rtasida tuzilgan tovarlarni oldi-sotdi, xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish yoki boshqa shartnoma bo`lib, unga muvofiq Mijoz Debitorga tovarlarni topshirish, xizmatlarni ko'rsatish yoki ishlarni bajarish majburiyatini oladi va Debitor esa ularni kechiktirilgan to`lov shartlarida to'lash majburiyatini oladi.

**Debitor uchun limit** –

**Moliyalash limitining foydalanilmagan qismi** - qarzdorlik so`ndirilmagan, limit va Mijozga haqiqatda berilgan moliyalash summasi o'rtasidagi farqga teng bo'lgan miqdor. Bunday holda, qarzdorlikni so`ndirish Debitor tomonidan boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasini to'lash va/yoki Mijoz tomonidan Moliya agentiga Moliyalash summasini qaytarish shaklida to'lovni amalga oshirish orqali amalga oshiriladi.

**Birlamchi hujjatlar** - boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasining haqiqiyligini aniqlash mumkin bo'lgan hujjatlar. Birlamchi hujjatlar Ro'yxati ushbu Shartnomaning 1-ilovasida keltirilgan. Ro'yxat yakuniy hisoblanmaydi, zarur hollarda, Moliya agenti Ro'yxatda ko'rsatilmagan hujjatlarni taqdim etishni talab qilishi mumkin.

**Kutish davri** – Kontrakt bo'yicha to'lovni kechiktirish tugaganidan so`ng boshlanadigan vaqt oralig'i bo`lib, bu Debitorga qo'shimcha ravishda boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasining summasini to'lash imkoniyatini beradi. Kutish davri bo`lishi mumkin va Reyestrda ko'rsatiladi.

**Shartnoma tuzish to'g'risidagi taklif (taklif)** – Mijozning Shartnomanani tuzish to'g'risidagi arizasini ijobjiy ko'rib chiqishda Moliya agenti tomonidan shakllantirilgan Axborot tizimidagi maqom, Faktoring shartnomasi shartlarini parametrlarini va hujjatlarni o'z ichiga oladi: Shartnoma va moliyalash shartlari.

**Reyestr** - bu Axborot tizimida shakllantiriladigan, Mijoz, Debitor, Moliya agentining (identifikatsiyasini), shuningdek Moliya agenti foydasiga voz kechilgan Pul talabnomalarining xususiyatlarini o'z ichiga olgan va bir vaqtning o'zida Pul talabnomasini boshqa shaxs foydasiga voz kechishni yuridik rasmiylashtirilishi va Debitorni Pul talabnomasini Moliya agenti foydasiga voz kechish to'g'risida xabardor qiladigan elektron hujjat. Reyestrni tuzish mumkin bo'lgan taxminiy shakllar (Moliyalash shartlaridan kelib chiqib) ushbu Shartnomaning 2-ilovasida keltirilgan.

**Kontrakt bo'yicha kechiktirish muddati** – Kontraktda nazarda tutilgan, Reyestrda ko'rsatilgan Pul talabnomasini Debitor tomonidan to'lashni maksimal darajada kechiktirish.

**Pul talabnomalarini boshqa shaxs foydasiga voz kechish summasi** - Pul talabnomasining summasi yoki uning tegishli qismi.

**Mijozning hisobvarag'iga o'tkazilishi kerak bo'lgan Moliyalash summasi** – Moliya agenti tomonidan Mijozning foydasiga to'lanadigan to'lov bo`lib, uning miqdori boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasi va Diskont summasi o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi.

**Tariflar** - Moliya agenti tomonidan tasdiqlangan, Moliya agentining ish haqi miqdorini belgilaydigan hujjat.

**Moliyalash shartlari** - ushbu Shartnomaning ajralmas qismi bo`lib, Tomonlarning moliyaviy munosabatlarini belgilaydigan elektron hujjatdir. Moliyalash shartlarining shakli ushbu Shartnomaning 4-ilovasida keltirilgan.

**Faktoring (Faktoring xizmatlari)** – bu operatsiya bo`lib, unga muvofiq:

a) Moliya agenti ushbu Shartnomada belgilangan shartlar va tartibda Pul talabnomalaridan boshqa shaxs foydasiga voz kechish bo'yicha Mijozni Moliyalashni amalga oshiradi;

b) Mijoz Moliyalashni olish uchun Kontrakt doirasida Mijoz tomonidan Debitorga tovarlarni taqdim etish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishdan kelib chiqadigan Pul talabnomalari hisobidan Moliya agenti foydasiga voz kechadi;

v) Debitor to'g'ridan-to'g'ri Moliya agentiga boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomalari bo'yicha to'lovni amalga oshiradi.

**Moliyalash** - Mijozning Debitor foydasiga voz kechilgan Pul talabnomalari hisobiga Moliya agenti tomonidan Mijozga pul mablag'larini taqdim etishi. Moliyalash ushbu Shartnomada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda amalga oshiriladi.

**Moliya agenti** - o'z mijozlariga faktoring xizmatlarini taqdim etuvchi, Yetkazib beruvchi va Debitor o'rtasida tuzilgan Kontraktdan kelib chiqadigan Mijozdan Debitorga nisbatan Pul talabnomasini oluvchi, Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga Mijozni moliyalovchi va ushbu Shartnomada doirasida Mijozga boshqa xizmatlarni ko`rsatuvchi «ASIA ALLIANCE BANK» ATB.

**Elektron hujjat** - elektron shaklda qayd etilgan, ERI bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan axborot.

**ERI** - Elektron raqamli imzo - elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgarishlar natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik mavjud emasligini aniqlash va elektron raqamli imzo kalitining egasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan imzo;

## 2. Shartnoma predmeti

2.1. Shartnoma bo'yicha Mijoz Debitorga nisbatan Mijozga tegishli bo'lgan Pul talabnomasini Moliya agentiga beradi va Moliya agenti esa ushbu ko`rsatilgan Pul talabnomasidan voz kechish evaziga Mijozni moliyalashni amalga oshirish majburiyatini oladi.

2.2. Shartnoma bilan quyidagi tartib belgilanadi:

- Mijoz tomonidan Debitorga nisbatan Mijozga tegishli bo'lgan Pul talabnomalarini Moliya agentiga topshirishlari;
- Moliya agenti tomonidan ko`rsatilgan Pul talabnomalaridan voz kechish evaziga Mijozni Moliyalashni amalga oshirishi;
- Moliya agentining xizmatlari (mukofotlari)ni to'lash;
- Debitor tomonidan boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomalari bo'yicha Moliya agentiga to'lovlarini amalga oshirish.

## 3. Limitlarni o`rnatish

3.1. Moliya agenti limitlarni o'z xohishiga ko'ra belgilaydi.

3.2. Limitlar o'zbek so'mida belgilanadi.

3.3. Ushbu Shartnoma bo'yicha Moliyalashni amalga oshirish hisobiga Moliya agenti tomonidan amalga oshirilgan to'lov bo'yicha qarzdarlikni so`ndirish, Moliya agenti tomonidan belgilangan limit doirasida limitning foydalanimagan qismi miqdorini bunday so`ndirish summasiga oshiradi.

3.4. Limitni belgilash oferta hisoblanmaydi va ushbu Shartnoma bo'yicha Tomonlarda hech qanday majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi.

## 4. Shartnomani tuzish tartibi va shartlari

4.1. Shartnomani tuzish uchun Mijoz Axborot tizimida Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish (faktoring) evaziga moliyalashni amalga oshirish to'g'risida shartnoma tuzish uchun Ariza shakllantiradi va ini Moliya agentiga ko'rib chiqish uchun yuboradi.

4.2. Lozim darajada rasmiylashtirilgan Arizani olgandan keyin 3 (uch) ish kuni ichida Moliya agenti Shartnoma tuzish yoki Shartnoma tuzishni va moliyalashni rad etish to'g'risida qaror qilishi kerak.

4.3. Shartnoma tuzish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, Moliya agenti Mijozga Axborot tizimi orqali Taklif yuboradi: Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish (faktoring) evaziga moliyalashni amalga oshirish to`g`risida shartnoma va Moliyalash shartlarini – ERI bilan imzolangan elektron hujjat.

4.4. Mijoz ko`rsatilgan hujjatlar (Shartnoma va Moliyalash shartlari) bilan Taklifni qabul qilib, ularni o`zining ERI bilan imzolaydi.

4.5. Mijoz tomonidan Taklif qabul qilinganidan va Mijoz tomonidan Shartnoma va Moliyalash shartlari imzolanganidan so'ng, Debitor Shartnomani (faktoringni) imzolash zarurligi to'g'risida xabar oladi, Shartnomani imzolaydi, shundan so'ng Mijozning Arizasi Shartnoma tuzilgan maqomiga o'tadi.

4.6. Agar Mijoz tomonidan Shartnoma tuzish to'g'risidagi Taklif olingan kundan boshlab 30 (o'tiz) kalendar kun ichida Shartnoma tuzilmagan bo'lsa, u holda Moliya agentining taklifi aktual bo'lmaydi.

4.7. Bankka Ariza yuborish va Shartnoma va Moliyalash shartlarini imzolash (Shaxsiy kabinetda ERI bilan tasdiqlash) orqali Mijoz va Debitor Shartnoma shartlariga to'liq rozi bo'ladilar, shuningdek Shartnoma

shartlari ular uchun kamsituvchi va/yoki og'ir emasligini, odatda ushbu turdag'i shartnomalar bo'yicha berilgan huquqlardan mahrum qilmasligini tasdiqlaydilar.

4.8. Barcha Tomonlar tarafidan Shartnomalar, Moliyalash shartlari imzolangandan (ERI) so'ng, Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish (faktoring) evaziga moliyalash shartnomasi tuzilgan hisoblanadi.

## **5. Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechishning asosiy shartlari**

5.1. Mijoz ushbu Shartnomaga muvofiq Moliya agenti foydasiga voz kechish niyatida bo`lgan Pul talabnomalariga nisbatan (Tomonlar tarafidan Shartnomalar tuzilgan bo`lsa), Mijoz Axborot tizimida moliyalashni taqdim etish uchun Arizani shakllantiradi (Shartnomaga 3-ilova) va uni Pul talabnomasiga tegishli Dastlabki hujjatlar va Reyestr bilan birgalikda Moliya agentiga ko'rib chiqish uchun yuboradi.

Reyestr Moliya agentiga yuborilishidan oldin Debitor tomonidan imzolanishi kerak.

5.2. Lozim darajada rasmiylashtirilgan Ariza, Dastlabki hujjatlar va Reyestrni olgandan keyin 3 (uch) kun ichida Moliya agenti moliyalashni taqdim etishi yoki moliyalashni taqdim etishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishi va Mijozni Axborot tizimi orqali qabul qilingan qaror to'g'risida xabardor qilishi kerak.

5.3. Reyestr Mijoz, Debitor va Moliya agenti tomonidan imzolanganidan keyin haqiqiy hisoblanadi.

5.4. Agar Reyestrni imzolash vaqtida boshqa shaxs foydasiga voz kechilayotgan Pul talabnomasi bo'yicha to'lov majburiyati allaqachon kelib chiqqan bo`lsa, Pul talabnomasi Tomonlar Reyestrni imzolagan paytdan e'tiboran Moliya agentiga o'tadi.

5.5. Pul talabnomalaridan boshqa shaxs foydasiga voz kechish bilan bir vaqtda, Kontrakt/lardan kelib chiqadigan va Pul talabnomasi bilan bog'liq boshqa huquqlar ham Moliya agentiga o'tadi, xususan: Debitorga nisbatan jarima sanktsiyalarini qo'llash huquqi; Mijozga berilgan ta'minotga bo`lgan huquqlar; naf oluvchining mumkin bo`lgan sug'urta talablari bo'yicha huquqlari va boshqalar.

Agar boshqa huquqlarni boshqa shaxs foydasiga voz kechish uchun Mijoz tomonidan qo'shimcha harakatlarni amalgalash oshirilishi zarur bo`lsa (hujjatlarni rasmiylashtirish va boshqalar), Mijoz ushbu harakatlarni amalgalash oshirishga majburdir.

5.6. Debitorga nisbatan Mijozning Pul talabnomalaridan boshqa shaxs foydasiga quyidagi larda voz kechilmaydi:

muddati o'tgan debitorlik qarzdorligi hisoblanganda;

to'lov muddati yetkazib berilgan kundan boshlab 180 (bir yuz sakson) kalendar kundan oshgan bo`lsa;

Mijoz tomonidan Kontrakt bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi bo'yicha Debitor tomonidan da'volar taqdim etilishi munosabati bilan Debitor bilan har qanday nizo va kelishmovchiliklar mavjud bo`lsa;

komissioner (agent) tomonidan komitent (prinsipal) topshirig'i bilan tuzilgan Kontraktlardan kelib chiqqan bo`lsa.

5.7. Moliya agentiga berilgan Pul talabnomalariga nisbatan Mijozda garov huquqi vujudga kelmaydi.

## **6. Mijozni moliyalash tartibi**

6.1. Tomonlar tarafidan Reyestr imzolanganidan keyin 3 (uch) ish kuni ichida Moliya agenti Mijozning hisobvarag'iga o'tkazilishi lozim bo`lgan Moliyalash summasini Mijozga o'tkazadi.

6.2. Mijozga to'lovlar Reyestrda ko'rsatilgan Mijozning rekvizitlari bo'yicha amalgalash oshiriladi. To'lovni o'tkazish sanasi Moliya agentining hisob-kitob hisobvarag'idan pul mablag'larini hisobdan chiqarilgan sana hisoblanadi.

## **7. Debitor tomonidan boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomalarini to'lash tartibi**

7.1. Debitor tomonidan boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomalarini to'lash Reyestrda ko'rsatilgan Moliya agentining rekvizitlari bo'yicha amalgalash oshiriladi.

7.2. Debitor to'lovni Kontrakt va ushbu Shartnomada belgilangan shartlarga muvofiq muddatlarda va miqdorda amalgalash oshiradi.

7.3. Debitor Moliya agentining ushbu Shartnomaga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Moliya agentiga to'lashga majbur bo'lgan boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul

talabnomalarini to'lash to'g'risidagi talablarini birinchi navbatda qanoatlantirishga majbur, bu haqda Mijoz xabardor qilingan va o'z roziligini bergan.

7.4. Debitorning majburiyatlarini so`ndirishning quyidagi tartibi belgilanadi:

Pul talabnomasiga binoan asosiy qarzni so`ndirish;

Debitorning javobgarligi (penyalar) tufayli yuzaga keladigan qarzdorlikni so`ndirish.

## 8. Moliya agentining haqi

8.1. Faktoring xizmati uchun Moliya agentining haqi Moliyalash shartlariga kiritilgan Tariflarda nazarda tutilgan tartibda, miqdorda va shartlarda belgilanadi (Moliyalash shartlariga 1-ilova).

8.2. Haqni hisob-kitob qilish uchun asos bo`lib, Reyestrda ko`rsatilgan Moliya agenti foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasining summasi hisoblanadi.

8.3. Moliyalashdan foydalanganlik uchun Komissiyani to'lash Moliya agenti tomonidan Mijozning hisobvarag'iga (Diskont) kirim qilish uchun Moliyalash Summasidan tegishli summani ushlab qolish yo'li bilan amalga oshiriladi.

8.4. Moliyalashdan foydalanganlik uchun Komissiya miqdori Moliyalash taqdim etilgan sanadan kechiktirmay belgilanadi va Debitor tomonidan Pul talabnomalari muddatidan oldin so`ndirilgan taqdirda, qayta ko'rib chiqilmaydi.

## 9. Mijozning huquqlari va majburiyatları

### 9.1. Mijoz quyidagilarga majbur:

9.1.1. Boshqa shaxs foydasiga voz kechish paytida ularga nisbatan quyidagilar bo`lganda haqiqiy Pul talabnomalarini berish:

Mijoz va Debitor tomonidan boshqa shaxs foydasiga voz kechilayotgan Pul talabnomalarining yuzaga kelganligini tasdiqlovchi Dastlabki hujjatlar imzolangan;

Mijozning Kontrakt bo`yicha majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligiga nisbatan Debitor tomonadan da'vo taqdim etilishi bilan Debitor bilan hech qanday nizo va/yoki kelishmovchiliklar mavjud emas;

tovarni Debitor tomonidan qaytarib yuborish (qaytarish), Debitorning Mijozga nisbatan muqobil talablarini hisobga olish, Pul talabnomasi summasining boshqa qonuniy ravishda kamaytirish amalga oshirilmagan va boshqa shaxs foydasiga voz kechish paytida bunday hisobga olishlar va kamaytirishlar uchun asoslar vujudga kelmadи;

uchinchi shaxslarning huquqlari, garovlari, nizolari va/yoki hibsga olishlar mayjud emas.

9.1.2. Reyestrni shakllantirish paytida ERI bilan tasdiqlangan Dastlabki hujjatlarni va Pul talabnomasining so`ndirish muddati tugamagan, boshqa shaxs foydasiga voz kechilayotgan Pul talabnomalariga tegishli boshqa hujjatlarni Moliya agentiga topshirish. Mijoz tomonidan boshqa shaxs foydasiga voz kechilayotgan Pul talabnomasining summasidan kam summadi Dastlabki hujjatlarni taqdim etish, huquqiy oqibatlarga ko'ra, Mijoz tomonidan boshqa shaxs foydasiga voz kechilayotgan Pul talabnomasini tasdiqlovchi Dastlabki hujjatlarni taqdim etmaslik bilan tengdir.

9.1.3. Debitordan Moliya agenti foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasi bo'yicha Mijozning hisobvarag'iga to'lov kelib tushgan taqdirda, Mijozning hisobvarag'iga pul mablag'lari kelib tushgan paytdan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida kelib tushgan pul mablag'larini Moliya agentiga o'tkazish. Debitor tomonidan Mijozning hisobvarag'iga boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasini to'lash Debitor uchun boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasini to'lash majburiyatini lozim darajada bajargan deb hisoblanmaydi. Mijoz tomonidan ushbu bandga muvofiq Moliya agentiga pul mablag'larini o'tkazguniga qadar, ikkinchisi Debitordan Moliya agenti foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasini to'lashni talab qilish huquqini saqlab qoladi, uni so`ndirish uchun Debitor Mijozning hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazgan.

Mijoz ushbu bandda nazarda tutilgan majburiylarni bajarmagan va/yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, Moliya agenti Mijozdan kechiktirilgan har bir kun uchun to`lash muddati o'tgan summaning 0,1 foizi miqdorida, lekin muddati o'tgan summaning 50 foizidan ko'p bo'limgan miqdorda penya to'lashni talab qilishga haqlidir.

9.1.4. Debitor oldidagi Kontrakt bo'yicha o'z majburiyatlarini aniq va qat'iy bajarilishini ta'minlash.

9.1.5. Moliya agentining yozma roziligesiz Kontrakt shartlariga va u bo'yicha hisob-kitob hujjatlari kelejakda bevosita yoki bilvosita allaqachon boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasining parametrlari va shartlariga, shu jumladan Pul talabnomasining hajmiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan

o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritmaslik. Mijoz ushbu bandda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda, Moliya agenti ushbu Shartnomani bekor qilishga va Mijoza Moliyalash summasini qaytarishni talab qilishga haqli.

9.1.6. Zudlik bilan (ushbu ma'lumot Mijoza ma'lum bo'lgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay) Mijoza ma'lum bo'lgan quyidagalar to`g`risidagi ma'lumotlarni Moliya agentiga yozma ravishda xabardor qilish:

Debitoring to'lov qobiliyatiga nisbatan salbiy holatlar yoki boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasini to'lay olmaslikka olib kelishi mumkin bo`lgan holatlar;

Debitor biron-bir sababga ko'ra o'zining pul majburiyatlariga qisman yoki to'liq e'tiroz bildirayotgan hollarda;

boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasiga yoki uning ta'minotiga nisbatan uchinchi tomon huquqi kuchga kiradigan holatlar;

Mijoza yetkazib beruvchilaridan biri Mijoza tovarlarni keyinchalik begonalashtirish uchun berilgan vakolatlarni chaqirib olgan yoki o'zgartirgan hollarda, buning natijasida kelib chiqadigan oqibatlar;

ushbu Shartnomaning mazmuniga va/yoki ushbu Shartnomaning predmeti bo'lgan majburiyatlarni bajarish imkoniyatiga ta'sir qiluvchi huquqiy va/yoki iqtisodiy xarakterdagi barcha o'zining o'zgarishlari, hatto ushbu o'zgarishlar ushbu Shartnoma bo'yicha faqat alohida majburiyatlarga ta'sir ko'rsatadigan holatlarda ham.

Ko`rsatilgan ma'lumotlar Mijoza tomonidan Moliya agentiga og'zaki ravishda telefon orqali darhol va yozma ravishda ushbu ma'lumot Mijoza ma'lum bo'lgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay, xabar qilinadi.

9.1.7. Moliya agenti va Debitor o'rtasida boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasi bo'yicha Moliya agenti tomonidan o'z huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha nizo yuzaga kelgan taqdirda, Moliya agentining tegishli so'rovi olingan paytdan e'tiboran 3 (uch) ish kuni ichida Moliya agentiga o'zida mavjud bo`lgan yoki olishi mumkin bo`lgan barcha hujjatlarni taqdim etish va nizoning mohiyati bilan bog'liq bo'lgan, uning egaligidagi yoki olishi mumkin bo`lgan barcha ma'lumotlar haqida xabar berish.

Mijoza boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasi bo'yicha Moliya agenti tomonidan o'z huquqlarini amalga oshirishi uchun barcha zarur tushuntirishlarni beradi. Mijoza Debitor bilan almashgan barcha hujjatlarning nuxxalarini bunday hujjatlar yuborilgan yoki qabul qilingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida Moliya agentiga topshirishi shart.

9.1.8. Moliya agentining ushbu Shartnomaga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Moliya agentiga to'lashga majbur bo'lgan jarimalar yoki boshqa to'lovlarini to'lash to'g'risidagi talablarini birinchi navbatda qanoatlantirish.

9.1.9. Faktoring xizmati uchun Moliya agentiga haq to'lash.

9.1.10. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan talabnomalardan boshqa shaxs foydasiga voz kechmaslik va garovga qo'ymaslik.

9.1.11. Kontraktdan kelib chiqadigan Pul talabnomalari garovini amalga oshirmslik, bunda Pul talabnomasining huquqi Moliya agenti foydasiga voz kechiladi.

## **9.2. Mijoza quyidagi huquqlarga ega:**

9.2.1. Ushbu Shartnomaga muvofiq Faktoring xizmatini ko'rsatish tartibi va shartlari to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumotlarni olish.

9.2.2. Ushbu Shartnomaning amal qilish muddati davomida istalgan vaqtida Moliya agentiga uning Debitor bilan munosabatlarning hozirgi holati to'g'risida so'rovlar yuborish va agar ular bank yoki tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni o'z ichiga olmasa, Moliya agentining Debitor bilan yozishmalari jarayonida yuzaga keladigan hujjatlar nuxxalarini taqdim etishni talab qilish.

9.2.3. Ushbu Shartnomaning amal qilish muddati davomida istalgan vaqtida Moliya agentiga moliyalash limitini oshirish yoki kamaytirish so'rovi bilan murojaat qilish.

# **10. Moliya agentining huquqlari va majburiyatlari**

## **10.1. Moliya agenti quyidagilarga majbur:**

10.1.1. Mijoza ushbu Shartnomada belgilangan tartibda, miqdorlarda va muddatlarda moliyalash.

10.1.2. Boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomalarining joriy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek Moliya agenti ushbu Shartnoma doirasida olib boriladigan hisob-kitoblar bo'yicha boshqa ma'lumotlarni Mijoza taqdim etish.

10.1.3. Debitorga to'lov to'g'risida talablar qo'yish va boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomalari bo'yicha huquqiy tusdagi boshqa tegishli choralarni ko'rish. Har bir muayyan vaziyatda u yoki bu huquqiy choralarning maqsadga muvofiqligi Moliya agenti tomonidan belgilanadi.

10.1.4. Mijozning talabiga binoan, Mijoz o'zining Moliya agenti va Debitor bilan tijorat munosabatlarining holatini kuzatishi mumkin bo'lgan Moliya agentida mavjud bo'lgan barcha ma'lumotlar va hujjatlarni (bank va tijorat sirlarini tashkil etuvchilar bundan mustasno) Mijozga yuborish.

10.1.5. Moliyalash to'xtatilganligi to'g'risida darhol Mijozni xabardor qilish.

### **10.2. Moliya agenti quyidagilarga haqli:**

10.2.1. Mustaqil ravishda limitlarni belgilash va o'zgartirish, Limitlar kuchga kirish sanasini aniqlash.

10.2.2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidan ruxsat etilgan har qanday choralarni qo'llash, Kontrakt bo'yicha to'loymi olish uchun maqsadga muvofiq deb hisoblagan kelishuvlarni Debitor bilan tuzish.

10.2.3. Agar Debitor ushbu Shartnomaga muvofiq Moliya agentiga to'lanishi kerak bo'lgan summalarini o'z vaqtida o'tkazmasa (Shartnomaning 7-bo'lumi), ushbu summalarini Debitorning har qanday bankdagi barcha mavjud yoki kelajakdagagi hisobvaraqlaridan aktseptsiz tartibda hisobdan chiqarish, bunga Debitor ushbu Shartnomani tuzish orqali o'z roziliginini bildiradi. Agar Debitorning asosiy hisobvarag'i boshqa bankda joylashgan bo'lsa, Debitor ushbu Shartnoma bo'yicha moliyalashdan oldin (bevosita Bankka yoki Axborot tizimi orqali, ERI bilan tasdiqlangan holda) Moliya agentiga uning asosiy hisobvarag'iga xizmat ko'rsatuvchi bank bilan pul mablag'larini aktseptsiz hisobdan chiqarish to`g'risida tuzilgan kelishuvning nusxasini taqdim etish majburiyatini oladi.

10.2.4. Boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasiga tegishli bo'lgan Mijozning buxgalteriya va boshqa hujjatlarini taqdim etishni talab qilish.

10.2.5. Agar Mijoz ushbu Shartnomaga muvofiq Moliya agentiga to'lanishi lozim bo'lgan summalarini o'z vaqtida o'tkazmasa (Shartnomaning 9.1.3-band), ushbu summalarini Mijozning barcha mavjud yoki kelajakdagagi hisobvaraqlaridan aktseptsiz tartibda hisobdan chiqarish, bunda Mijoz ushbu Shartnomani tuzish orqali o'z roziliginini bildiradi.

10.2.6. Quyidagi hollarda bir tomonlama tartibda Moliyalashni to'xtatib turish, Moliyalashni amalga oshirmsaslik va/yoki Mijozdan taqdim etilgan Moliyalash hajmida pul mablag'larini qaytarishni talab qilish:

Mijozning ushbu Shartnoma, boshqa shartnomalar bo'yicha Moliya agenti oldidagi bajarilmagan majburiyatlar mayjudligi, shuningdek Kontrakt bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganligi;

Agar Mijoz tomonidan Moliya agentiga taqdim etilgan ma'lumotlar va/yoki hujjatlar ishonchhsiz bo'lib chiqsa va Mijoz yangi ishonchli ma'lumotlarni taqdim qilmasa;

Debitorning muddati o'tgan majburiyatlar mavjudligi;

Pul talabnomasining to'lov muddati o'tganligi;

Moliya agentining fikriga ko'ra, Mijoz yoki Debitorning majburiyatlar bajarilmasligi yoki tegishli Pul talabnomasi haqiqiy emasligi yoki haqiqiy emas deb topilishi mumkinligiga dalolat beruvchi holatlar Moliya agenti tomonidan aniqlandi.

## **11. Debitorning huquqlari va majburiyatlar**

### **11.1. Debitor quyidagilarga majbur:**

11.1.1. Ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasining summasini to'lash bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarish.

11.1.2. Kelajakda bevosita yoki bilvosita allaqachon boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasining parametrlari va shartlariga, shu jumladan Pul talabnomasining miqdoriga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan Kontrakt shartlariga Moliya agentining yozma rozilgisiz o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritmaslik.

11.1.3. Uning to'lov qobiliyatiga nisbatan salbiy holatlar yoki boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasini to'lamaslikka olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar to'g'risida unga ma'lum bo'lgan ma'lumotlar to`g'risida Moliya agentiga zudlik bilan xabar berish.

11.1.4. Kontrakt va ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarining aniq va qat'iy bajarilishini ta'minlash.

11.1.5. Moliya agentining talabiga binoan, unga mavjud bo'lgan barcha ma'lumotlar va hujjatlarni yuborish, unga ko'ra Moliya agenti Mijoz va Debitor bilan tijorat munosabatlarining holatini kuzatishi mumkin.

